

«TASDIQLAYMAN»

«UzAuto Motors» AJ

Kapital Qurilish bo'limi

boshlig'i

Dadajonov R.K.

« » 2022y.

NAZORAT O'LCHOVINI O'TKAZISH BO'YICHA TEXNIK TOPSHIRIQ

Obyekt nomi: Andijon viloyati Xonabod shaxridagi "UzAuto Motors" AJga qarashli "Xonabod" sihatgoxi

1. Ko'rsatiladigan xizmatlarning nomi:

Andijon viloyati Xonabod shaxridagi "UzAuto Motors" AJga qarashli "Xonabod" sihatgoxi qurilishi obyekti bo'yicha nazorat o'lchovlarini o'tkazish.

2. Nazorat o'lchovining ob'ekti xisoblanadi:

- 2.1 Obyektning Loyiha va ishchi xujjatlari;
- 2.2 Obyektning loyiha xuijatlari;
- 2.3 Obyektning bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomari;
- 2.4 Obyektning imzolangan shartnoma xujjatlari;
- 2.5 Amalda bajarilgan qurilish montaj, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarida qo'llanilgan material va jixozlar ro'yxati;
- 2.6 Obyekt bo'yicha ijro xujjatlari (sxemalar, chizmalar, umumiy jurnal va boshqalar);

3. Nazorat o'lchovi asosiy vazifalari:

- 3.1 Ob'ektni rekonstruksiya qilish va tiklashning moliyaviy va iqtisodiy risklarini tahlil qilish;
- 3.2 Loyiha, ijro xujjatlari, smeta va birlamchi buxgalteriya xujjatlarini o'rganib chiqish;
- 3.3 Amalda tugallangan qurilish-montaj ishlarini vizual tekshirish;
- 3.4 Qurilish va montaj ishlarini natijalarini tanlab nazorat o'lchovi o'tkazish (qurilish maydonida amalda bajarilgan ishlar aniqlanadi);
- 3.5 Bajarilgan ishlarning haqiqiy hajmini aniqlash, birlamchi buxgalteriya hujjatlari ma'lumotlari bilan taqqoslash;
- 3.6 Natijalarni birlamchi buxgalteriya va ijro xujjatlari ma'lumotlari asosida loyiha va ishchi xujjatlar talablari bilan solishtirish (ishlarning tarkibi va sifati va foydalanilgan materiallarning loyiha talablariga mos kelmasligi, qurilish maydonchasidagi fakt va qurilgan texnik hujjatlar o'rtasidagi nomuvofiqlik faktlari aniqlanadi.);
- 3.7 Qurilish ob'ektlarida qurilish materiallarining hajmini, kalkulyatsiyasini, texnik parametrlarini va sifatinii buyurtmachi va pudratchi tashkilot o'rtasida o'zaro rasmiy kelishuv, pudrat shartnomasi, oferta, loyiha hujjatlari va hisobotlar asosida qo'llanilganligini tekshirish;
- 3.8 Nazorat o'lchovini o'tkazish jarayonida aniqlangan barcha ma'lumotlarni hisobga olgan holda lokal smetalarni, ob'ekt smetalarni tuzish

4. Texnik audit o'tkazish maqsadi:

- 4.1 Ob'ektning barcha moliyaviy va iqtisodiy risklarini aniqlash va bartaraf etish;
- 4.2 Loyiha-smeta hujjatlari va qurilish hujjatlaridagi nazorat o'lchovlari paytida aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish;
- 4.3 Tegishli Qo'shimcha kelishuvni imzolash uchun lokal smetalarni, ob'ektlar smetalarni tayyorlash

5. Nazorat o'lchovi natijalari xulosasi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- Bajarilgan qurilish-montaj ishlari to'g'risida xisobot;
- Bajarilgan qurilish-montaj ishlari yuzasidan fotomateriallar;

- Bajarilgan qurilish-montaj ishlari yuzasidan tanlov asosida o'tkazilgan instrumental nazorat o'lchovi ma'lumotlari;
- Qurilish-montaj ishlarining amalda bajarilgan ish hajmalari xisobi;
- Amalda bajarilgan ishlarni loyiha-smeta xujjatlari bilan muvofiqligini baxolash;
- Pudratchi tashkilot tomonidan taqdim etilgan ijro xujjatlarini sifatini izoxlar bilan baholash,
- Ob'ektda amalda bajarilgan ishlarning (ishlarning turlari bo'yicha) qiymatini shartnoma, loyiha va ijro hujjatlariga muvofiq, hisoblangan me'yorlar asosida baholash;
- Ob'ektdagi ishlarning qiymatini (ish turlari bo'yicha) shartnoma va loyiha hujjatlariga muvofiqligini smeta normativlariga asosan baholash;

6. Xulosa buyurtmachiga quyidagi xolatda topshirilishi kerak:

- qog'ozga chop etilgan xolatda - 3 nusxada;
- electron ko'rinishda (diskda, fleshkada, word, excel va pdf formatlarda) – 1 nusxada

7. Ishlarni bajarishga qo'yiladigan umumiy talablar, sifatni ta'minlash ko'lamiga qo'yiladigan talablar, buyurtma berish natijalari uchun sifatni ta'minlash davriga qo'yiladigan talablar:

7.1. Bajaruvchi tomonidan ob'ektga tashrif buyurish Buyurtmachi bilan oldindan kelishilgan holda ish vaqtida amalga oshiriladi.

Tashkilotning ish vaqti: Dushanbadan Juma kuniga qadar, 8.00 dan 17.00 gacha

7.2. Ishni boshlashdan oldin bajaruvchi quyidagi tayyorgarliklarni amalga oshirishi kerak:

7.2.1. Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 3 (uch) kundan kechiktirmay, Buyurtmachi hududiga kirish va Buyurtmachi uchun zarur bo'lgan brifinglarni o'tkazish, xodimlar ro'yxatini va transport vositalari ro'yxatini tuzish uchun. har bir avtomashinaning markasi, modeli va davlat ro'yxatidan o'tganlik belgisini ko'rsatgan holda ob'yekt hududiga kirish (Shartnoma raqami va sanasi ko'rsatilgan holda)

7.2.2. Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 5 (besh) kundan kechiktirmay, bajaruvchi tomonidan tasdiqlangan Ishlar jadvalini Buyurtmachiga tasdiqlash uchun taqdim etish.

7.3. Nazorat o'lchovi o'tkazadigan tashkilotga qo'yiladigan aloxida talablar:

7.3.1. Tashkilot mutaxasislarining nazorat o'lchovi o'tkazish uchun maxsus sertifikatlarga ega bo'lishi lozim.

7.3.2. Tashkilot xodimlari tarkibida kamida 3 ta mutaxasis 10 yildan ortiq ushbu soxada faoliyat yuritgan bo'lishi kerak.

7.3.3. Nazorat o'lchovi natijasida tuzilgan dalolatnomaga "Xadicha Sulaymonova" nomli sud ekspertizasi mutaxasislari xulosasini olib berish lozim bo'ladi.

8. Ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va tovarlarni etkazib berish muddatlari, etkazib berishni boshlash va tugatish kalendar sanalari, shartnoma shartlarini bajarish muddatlari:

8.1. Ishlarni bajarish muddati – shartnoma imzolangan kundan boshlab 90 ish kundan oshmagan xolda.

8.2. Ishlarni boshlash vaqti – shartnoma imzolangan kun xisoblanadi.

8.3. Ishlarni yakunlash vaqti – belgilangan muddatning oxirgi sanasi (tanlov bayonnomasiga asosan).

9. Ishlarni bajarish, ketma-ketlik bosqichlari, jadvallar, shuningdek shartnomaning bajarilgan shartlari uchun bosqichma-bosqich to'lash tartibi.

9.1. Bajariladigan ish uchun oldindan to'lov (avans) berilmaydi.

9.2. Bajarilgan ish uchun haq to'lash ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda Ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilish dalolatnomasi Tomonlar tomonidan imzolanganidan so'ng 10 (o'n) bank kuni ichida amalga oshiriladi.

Bajardi:



Sh. Abdullayev